



## O'ZBEK XALQINING ETNIK TARIXI VA ETNOGENEZ MASALALARI

Boborahimov Shoxruhbek Inoyatillo o'g'li<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5815062>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20 -dekabr 2021  
Ma'qullandi: 25 - dekabr 2021  
Chop etildi: 30 - dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

O'zbek xalqi,  
paleontropologik  
masalalar, etnogenez,  
assimilasiya, muxtalif,  
avtoxtonizm.

### ANNOTATSIYA

"O'zbek xalqining etnik tarixi va etnogenez masalalari" nomli maqolada, O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi, etnogenez masalalari, o'zbek xalq etnogenezida qatnashgan urug'lar, o'zbek xalqining etnik tarixi, etnogenez masalalarining muhim jihatlari kabi masalalar yoritib berilgan.

"Burung'i asrlarda Turkiston va turklar voqeoti ahvoli haqida turkiy, forsiy va arabiy tillarda necha kitoblar yozilgandurki, u kitoblardan rus va boshqa ovropoilar istifoda etgan va etmakdadurlar. Lekin u muxtalif (turli-tuman) tillarda yozilgan. Tarixiy asarlardan biz turkistoniylar istifoda etub, yangi muhokama va tadqiqot ila o'z shevamizda muntazam bir asar vujudga keltirganimiz yo'q". Mahmudxo'ja Behbudiy.

O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik boy tarixiga ega. Xalqimiz juda katta davr ichida bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarni o'tab, murakkab jarayonlar davomida, ellat va so'ngra millat bo'lib shakllangan. Ana shu shakllanish jarayonlarini o'rganish etnografiya fanining bugungi kundagi eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbeklar

alohida etnik jamoa (elat) bo'lib, O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalari va Janubiy Turkistonda shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sun'iy sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy so'g'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, farg'onaliklar, sak-massagetlar, qang'lar kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Keyingi yillarda arxeolog olimlar (A.A.Asqarov, O'.Ismoilov, Y.F.Buryakov, T.Q. Xo'jayev) ning O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlari natijasida Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida so'nggi bronza davridayoq yuqorida nomlari zikr etilgan qabila va ellatlarning etnik jihatdan dastlabki aralashuvi sodir bo'lganligi, assimilasiya



jarayoni natijasida antik davrga kelib, o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon tarkib topganligi hamda o'zbek xalqiga xos antropologik tipning makon va zamoni aniqlangan. VIII asrdan arab va ajam xalqlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir etmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lsa-da, Movarounnahrda o'troq va yarimo'troq turkiyzabon aholi sug'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar(VII-VIII asrlar), keyinchalik Somoniylar (IX asr) hukumronligi ostida yashaganlar. Qoraxoniylar davrida (X-XI asrlarda) Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezing yakuniy bosqichi boshlandi. G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida hozirgi o'zbeklarga xos turkiy etnos qaror topdi va aynan mazkur davrda ellatni belgilovchi hudud, til, madaniyat, tarixiy qismatining umumiyli, etnik o'zlikni anglash, etnosning uyushqoqligi, din umumiyli va bir qancha shu kabi etnik alomatlar shakllangan.[1].

O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida maxsus tadqiqotlar va ular haqida yozilgan asarlar ko'p emas. Ammo bu masalada taniqli sharqshunos va arxeolog olim, professor Y.Y.Yakubovskiy, Xorazm tarixining chuqur bilimdoni professor S.P.Tolstov, akademiklar Y.G'ulomov va K.Shoniyozovlarning xizmati katta. 1941-yilda professor Y.Y.Yakubovskiy "O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida" risola yozadi. O'z o'rnida aytib o'tish

lozimki, o'zbek etnonimining kelib chiqishi bo'yicha fanda yakdil fikr mavjud emas. Ayrim mualliflar (G.Vamberi, G.Xovor, M.P.Pelio) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli "o'zbek", ya'ni "o'z- o'ziga bek" deb atagan desalar, boshqalar (P.P.Ivanov, A.Y.Yakubovskiy, Xilda Xukxem) "o'zbek" etnonimini Oltin O'rda xoni O'zbekxon(XIV asr) nomi bilan bog'laydi. [2].

O'zbek xalqining qadimgi ajdodlari kimlar edi? Ular Movarounnahr va qadimgi Xorazmning turkiy va eroniy til lahjalarida so'zlashuvchi tubjoy o'troq va chorvador aholisi ekan, bu ikki xil tilda so'zlashuvchi qabila va ellatlarning birinchi bor o'zaro aralashishi jarayoni milliy avtohtonizm nazariyasiga ko'ra, o'zbek etnogenezing boshlanishi, dastlabki nuqtasi hisoblanadi. Sharq manbalarining bilimdoni, professor A.Y.Yakubovskiy ana shu ilmiy prinsipdan kelib chiqib 1941-yil chop etilgan "O'zbek xalqining yuzaga kelishi haqida" nomli asarida o'zbek etnogenezi Turk xoqonligidan boshlanadi, degan edi. Keyinroq, o'zbek etnogenezing boshlang'ich nuqtasi antik davrgacha qadimiylashtiriladi, ya'ni S.P.Tolstov qadimgi Xorazmda olib borgan keng ko'lamlil arxeologik, antropologik materiallarning yozma manba ma'lumotlari bilan qiyosiy o'rganib, "Qang' davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, bularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo'lmagan", degan g'oyani ko'tarib chiqdi. Akademik Karim Shoniyozov esa "Qang' davlati va qang'lilar" nomli hamda "O'zbek xalqining



shakllanish jarayoni" nomli fundamental monografiyasida mana shu g'oyani qat'iy himoya qilib chiqdi. Shuningdek Qang' davlati ichida miloddan oldingi II milodiy I asrlar davomida mutlaqo yangi, turkiy tilli xalq qang'arlar ellati vujudga keladi. [3].

**Xulosa** qilib aytaydigan bo'lsak, millatning shakllanishi ham xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo'lib, millat etnik tarixining eng yuksak yuqori cho'qqisi, kamolot bosqichi, bu bosqichga

ko'tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi, u suveren davlat sifatida ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritadi, millatga xos mentalitet shakllanadi, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizmga aylanadi. O'zbek ismi kelib chiqishini bayon qilayotgan odam, avvalo bu ishga mehr bilan yondoshishi, xolis va beg'araz bo'lishi, xalqning an'analarini, mentalitetini, harakterini juda chuqur o'rganishi, uning tilini juda yaxshi bilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.X.Doniyorov, O.Bo'riyev, A.A.Ashirov "Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi". Toshkent - 2011.
2. Anvar Shukurov "O'zbek atamasining kelib chiqishi haqida". "Nasaf" nashriyoti - 2010.
3. Ahmadali Asqarov "O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi". Toshkent - 2007.